

ZAMONAVIY TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATI
ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО СОВРЕМЕННОГО УЧИТЕЛЯ
PEDAGOGICAL SKILLS OF THE MODERN TEACHER

Qilichova Marhabo Xudoyqulovna
JDPI “Maktabgacha ta’lim” fakulteti,
“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi
To‘lanova Feruzaxon Turg‘unboy qizi
JDPI “Maktabgacha ta’lim” fakulteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy tarbiyachining pedagogik mahorati haqida fikr yuritilgan bo‘lib, unda zamonaviy tarbiyachining o‘ziga xos bo‘lgan fazilatlari, bilim, ko‘nikma va malakalari bayon etilgan. Shuningdek maqolada bugungi kunda zamonaviy tarbiyachiga qo‘yilayotgan talablarga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается педагогическое мастерство современного педагога, описываются уникальные качества, знания, умения и компетенции современного педагога. В статье также акцентируется внимание на требованиях, предъявляемых к современному педагогу.

ANNOTATION

This article discusses the pedagogical skills of a modern educator, describing the unique qualities, knowledge, skills and abilities of a modern educator. The article also focuses on the requirements for today's educator.

KALIT SO‘ZLAR: pedagogik mahorat, bilim, ko‘nikma, malaka, zamonaviy tarbiyachining kasbiy kompetentlari, hozirgi jamiyatda murabbiy tarbiyachining pedagogik mahorati, muomala madaniyati, notiqlik san’ati, jozibadorlilik, tashabbuskorlik.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: педагогическое мастерство, знания, умения, квалификация, профессиональные компетенции современного педагога, педагогическое мастерство воспитателя в современном обществе, культура общения, ораторское искусство, привлекательность, инициативность.

KEYWORDS: pedagogical skills, knowledge, skills, qualifications, professional competencies of a modern educator, pedagogical skills of a tutor in today's society, culture of communication, public speaking, attractiveness, initiative

.Hozirgi kunda "pedagogik mahorat" da erishilgan eng so'nggi yutuqlar nuqtai-nazaridan yondashganda, o'qituvchilik kasbi - hamisha navqiron kasb sifatida e'zozlanib kelinmoqda. Shuning uchun ushbu kasbiy faoliyatning ilmiy - nazariy va amaliy-metodik asoslari yildan yilga o'z xususiyatlarini boyitib bormoqda. Darslarda "pedagogik mahorat"ning nazariy va metodologik asoslariga, mazmuni, funksiyasi, tarkibiy qismlariga, ularning vazifalariga jiddiy e'tibor berilgan. Shu bilan birga, o'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqanlarda o'qituvchilar va tarbiyachilarning o'z kasbiga milliy, ma'naviy jihatdan munosabati qanday bo'lishi kerakligi yoritilgan.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat olib borayotgan tarbiyachilarga hamda pedagogik faoliyatga tayyorlanayotgan talabalarga kasbiy pedagogik mahoratni egallash hamda uni uzluksiz takomillashtirib borish to'g'risida har tomonlama mukammal tavsiyalar berish lozim.

Shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi, mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Ushbu tajribalar o'qitish shakllarida foydalaniladigan o'qitish qonuniyatlarini, prinsiplarini ijodiy qo'llashda, ilmiy-bilimlarga doir g'oyalalar, nazariyalar, qonuniyatlari amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'z davrlarida Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Sa'diy Sher ziy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Husaj Voiz Koshifiy, Abdulla Avloniy va boshqalar o'qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o'qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo'lgan sifatlar xususidagi qimmatli ma'lumotlari o'z asarlarida qizg'in bahs qilishgan. Binobarin, pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan pedagog ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ham ega bo'la olmaydi. Yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lgan pedagog bolani tilini tushuna olishi, unga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lishi, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholashi, yuzaga kelishi ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etishi, pedagogik faoliyatda hamisha ilg'orligi, jamiyat taraqqiyotidagi yutuqlarni yosh avlod ongiga singdirilayotgan ezgu g'oyalarni hayot bilan bog'lay olishi lozim.

Hozirgi kunda darsliklar, kommunikatsion axborot texnologiyalari qanchalik rivojlangan bo'lmasin, pedagogik amaliyot, ta'lim - tarbiya ishlarining

muvaffaqiyati baribir pedagogning bilimiga, uning kasbiy mahoratiga bog'liq. Shu nuqtai – nazardan hozirgi kunda pedagoglardan zamonaviy bilim berishlari talab qilinmoqda. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, pedagogning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak.

Darhaqiqat, har bir yosh mutaxassisni puxta ilmiy - nazariy bilimlar bilan qurollantirish, egallagan ilmiy bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash uchun ko'nikma va malakalarini rivojlantirish albatta oson ish emas. O'qishga ilmiy, ongli munosabat bilan qaraydigan, mustaqil fikrlaydigan, mukammal ma'lumotlarni egallashga layoqatli, bilish faolligi va aqliy mehnat madaniyatini o'zida mujassamlashtirgan yoshlarni voyaga yetkazish muhim vazifadir. Kasbiy pedagogik ta'lim yo'nalishida pedagogik mahoratni yanada takomillashtirish, uning samaradoriigini oshrishga e'tiborni kuchaytirish hozirgi kunning dolzarb muammosi sifatida tan olinmoqda.

Shu o'rinda bir savol tug'iladi, hozirgi kundagi murabbiy tarbiyachi pedagogik mahoratga ega bo'lishi uchun qanday talablarga javob berishi lozim. Tarbiyachining shaxsiy xislatlariga ularning bolalar jamoasidagi vazifalari, ularning ish faoliyatidagi fidoyiligi, bolasevarligi, bolaning istiqboliga qiziqishlari bilan aniqlanadi.

Umuman olganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi murabbiy va tarbiyachilar quyidagi psixo-fizologik xususiyatlarga ham ega bo'lishi kerak:

- mustahkam sog'liq, sog'lom fikrlilik, jismoniy baquvvatlilik, iro dalilik, chidamlilik, ishchanlik, g'ayratlilik, bayroqdor bo'lishga ishtiyoqlilik bo'lishi kerak;
- ular konstruktiv, analitik va ijodiy fikrlashlarga ham qodir bo'lishlari kerak;
- nutq madaniyati, muomala madaniyati hamda kommunikativlik.

Xullas murabbiy tarbiyachilar o'zlarining kasbiy mahoratiga qo'yilgan talablarga amal qilsa, birinchidan, bolalar bilan ishlashda ularning tarbiyasi va rivojlanishiga qayg'uradi, hamda ularga ishonish orqali bolalarning faollik va ijodiy qirralarini namoyon qila oladi. Bunda bolalarni tushuna olish qobiliyati ularning pedagogik mahoratiga o'ta muhim sifatii ko'rsatkich sifatida namouon bo'ladi. Ikkinchidan, ular tashkilotchilik faoliyati orqali bolalarda mashg'ulotga qiziqishni, jamoaviy ishlarni tashkil etishda bolalarga ijobiy-jamoaviy ta'sir etishni, ularda havaskorlik va tashabbuskorlik hamda javobgarlik hislarini shakllantira oladi. Bunday holatda ularning o'zidagi bor kuchni boshqalarga o'tkaza olishi va o'z bilim, ko'nikma, malakalarini to'liq ishga solib bolalarga ta'sir o'tkazishi o'ta muhim sanaladi. Ularning bolalar jamoasida ishlashiga bo'lgan moyilligi, qiziqishi, layoqati va fidoyiligi tufayligina bolalar jamoasining ma'naviy jihatdan bilimligi ta'minlanadi, bolalardagi ijodiy faoliyat va tashabbuskorlikka ijobiy turtki bo'ladi. Uchinchidan, tarbiyachi pedagoglarning bolalar bilan ishlashdagi kommunikativligi va bolalarga bo'lgan samimiyliigi hamda muloyimligi bolalardagi barcha bilan muloqot qila olishligini, bolalarning tezda o'z o'rtoqlari bilan til topisha olishligini, erkin muloqot qila olishligini,

sezgirlikni, mehribonlikni, o‘zaro hamkor bo‘lishlikni va shu kabilarni shakllantirishga samarali ma’naviy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa o‘rta shuni qayd etish joizki, mamlakatimizda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bevosita barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishga qaratilgan. Komil inson va yetuk malakali mutaxassis maxsus tashkil etilgan pedagogik faoliyat jarayonida shakllanar ekan, ushbu jarayonda pedagoglar dars mashg‘ulotlarini shunday tashkil etishlari kerakki, bo‘lajak kadrlar kuzatuvchanlik, ijodkorlik, ilg‘or pedagogik tajribalarni mustaqil o‘zlashtirish orqali o‘z bilimlarini yanada oshira olishlari kerak. Ular talabalarni o‘qitish jarayonida diqqatni taqsimlash, bilim, ko‘nikma va malakalar, psixik holatlarini boshqara olish va pedagogik texnika madaniyatini mustaqil o‘zlashtirish malakalarini shakllantirishga e’tibor qaratishlari lozim hamda ularda hayotiy ko‘nikmalarni egallashlariga yo‘naltirishlari darkor.

ADABIYOTLAR

- 1.O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020 yil 23 sentabr. <https://lex.uz>.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. 2018 yil 21 sentabr. <https://lex.uz>.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi.// “Xalq so‘zi” gazetasi 2018 yil 8 dekabr.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T. “Ma’naviyat”, 2008, 43-bet.
5. Quronov.M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz... .T. “Ma’naviyat”, 2014, 22-bet.
- 6.Qilichova M.X. Ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish //Ta’limda kreativ yondashuv yo‘llarini rivojlantirishning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy, onlayn konferensiya materiallari. Jizzax, 2021, 252-bet.
7. Qilichova M.X. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ekologik bilim va madaniyatni shakllantirish masalalari. /Maktabgacha ta’lim jurnali. Jizzax davlat pedagogika instituti “Maktabgacha ta’lim fakulteti”ning elektron jurnali.
- 8.Qilichova, M. (2021). MAKTABGACHA TA’LIMDA ELEMENTAR MATEMATIK TUSHUNCHALARNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI. *Мактабгача таълим журнали*, 4(Preschool education journal).

9.Kilichova, M. K. (2021). LITTLE FEATURES OF FOREIGN EXPERIENCE IN EDUCATION OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(10), 241-246.

10.Qilichova, M. (2021). Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy rivojlanishining o'ziga xosliklari. *Мактабгача таълим журнали*, 3(Preschool education journal).

11.Qilichova, M. (2021). Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning rivojlanish yoshi va o'ziga xos xususiyatlari. *Мактабгача таълим журнали*, 3(Preschool education journal).

12. Qilichova, M. X. (2021). MAKTABGACHA TA'LIM VA TARBIYANING XORIJ DAVLATLARDAGI ILG 'OR TAJRIBALARI. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 739-746. Qilichova, M. X. (2021). MAKTABGACHA TA'LIM VA TARBIYANING XORIJ DAVLATLARDAGI ILG 'OR TAJRIBALARI. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 739-746.6.

021 yil oktabr.